



**O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

Eshpulatova Shoxista

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti o'qituvchi

shoxistaeshpulatova0@gmail.com

+99888 072 27 10

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamda o'smirlarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'smirlik davriga xos bo'lgan emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, o'zini namoyon qilish ehtiyoji, tengdoshlar tomonidan tan olinishga bo'lgan intilish hamda shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlarning agressiv xatti-harakatlar bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, oiladagi tarbiya muhiti, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim muassasasidagi psixologik iqlim, pedagogik muloqot, tengdoshlar guruhi va zamonaviy axborot makonining o'smirlar xulq-atvoriga ta'siri ochib beriladi. Agressivlikning jismoniy tajovuz, verbal agressiya, tahdid, psixologik bosim hamda kiberagressiya kabi shakllari ko'rib chiqilib, ularning ayrim hollarda deviant xulq-atvor bilan o'zaro bog'liqligi asoslanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smirlardagi agressiv xulq-atvorning oldini olishda oila, maktab va jamoatchilikning uzviy hamkorligi, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, ijobiy muloqot muhitini yaratish, emotsional o'zini boshqarish va nizolarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *o'smirlik davri, agressiv xulq-atvor, agressivlik, pedagogik omillar, psixologik omillar.*

Kirish

O'smir shaxsining ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatdan shakllanishi zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki aynan o'smirlik davrida bolaning o'ziga, atrofdagilarga va jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarga munosabati sezilarli darajada o'zgaradi. Mustaqil qaror qabul qilishga intilish, o'z fikrini himoya qilish, tengdoshlari orasida muayyan mavqega ega bo'lish istagi hamda kattalar bilan munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishi ushbu yosh bosqichining muhim xususiyatlaridandir. Mazkur jarayonlar ijobiy pedagogik muhit bilan uyg'unlashmagan hollarda turli xulqiy muammolarning, jumladan, tajovuzkorlik va agressiv xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratishi mumkin.

Hozirgi ijtimoiy muhitda o'smirlarning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar doirasi yanada kengayib bormoqda. Oila, maktab va tengdoshlar muhiti bilan bir qatorda internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kommunikatsiya va turli media kontentlar ham o'smirlarning dunyoqarashi hamda xulqiy tasavvurlarini shakllantirishda muayyan o'rin egallamoqda.



Axborotning katta hajmda va tezkor tarzda tarqalishi o'smirlarga turli xulqiy modellar bilan tanishish imkonini bermoqda. Shu sababli o'smirlarning agressiv xatti-harakatlarini o'rganishda faqat uning individual xususiyatlariga emas, balki u yashayotgan ijtimoiy-pedagogik muhitga ham e'tibor qaratish zarur.

Agressiv xulq-atvor o'smirlarning boshqa shaxsga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga yo'naltirilgan harakatlarida, qo'pollik, haqorat, tahdid, nizoga intilish, psixologik bosim yoki kiberagressiya ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar o'smirlarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, uning oila a'zolari, pedagoglar va tengdoshlari bilan munosabatlarida ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Uzoq davom etuvchi agressiv xulq-atvor ayrim hollarda ijtimoiy me'yorlarni buzish, maktab intizomiga rioya qilmaslik va boshqa deviant xatti-harakatlar bilan bog'lanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, o'smirlardagi agressiv xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi sabablarni pedagogik va psixologik jihatdan o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Muammoni to'g'ri anglash agressiv xatti-harakatning faqat tashqi ko'rinishlarini baholash bilan cheklanmasdan, uning ortida turgan emotsional, oilaviy, ijtimoiy va tarbiyaviy omillarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, o'smirlarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olish, uning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish va ijobiy muloqotga asoslangan ta'lim muhitini shakllantirish profilaktik faoliyatning muhim shartlari hisoblanadi. O'smirlarda agressiv xulq-atvorning shakllanishi murakkab va ko'p darajali jarayon bo'lib, unda biologik yetilish, individual-psixologik xususiyatlar, oilaviy tarbiya, maktab muhiti, tengdoshlar bilan munosabatlar va axborot makoni bir-biri bilan uzviy aloqada bo'ladi. Shu sababli agressivlikni bitta omil bilan izohlash o'smir xulq-atvorining haqiqiy sabablarini to'liq ochib bera olmaydi. Mazkur hodisani tizimli ravishda o'rganish agressiv reaksiyalar qachon, qanday sharoitda va nima sababdan kuchayishini aniqlashni talab etadi.

O'smirlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari agressiv reaksiyalarning paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda shaxsning o'zligini anglash jarayoni faollashadi, mustaqillik ehtiyoji ortadi va o'z qarashlarini tasdiqlash istagi kuchayadi. Shu bilan birga, emotsiyalarni boshqarish mexanizmlari hali to'liq shakllanib ulgurmaganligi sababli o'smir ayrim vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini keskin tarzda ifodalashi mumkin. Oddiy kelishmovchilikning jiddiy nizoga aylanishi, tanqidga haddan tashqari ta'sirchan munosabat bildirish yoki o'z fikri qabul qilinmagan vaziyatda tajovuzkorlik ko'rsatish shunday holatlarning ko'rinishlaridan biridir. Agressiv xulq-atvorning muhim psixologik manbalaridan biri frustratsiya holatidir. O'smir o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmaganda, tengdoshlari tomonidan qabul qilinmaganda, ota-onasi yoki pedagog tomonidan tushunilmaganini his qilganda ichki ruhiy zo'riqish yuzaga kelishi mumkin. Agar ushbu zo'riqishni konstruktiv usulda ifodalash ko'nikmasi mavjud bo'lmasa, u tajovuzkor xatti-harakat shaklida tashqi muhitga yo'naltirilishi ehtimoli ortadi. Demak, agressivlikning oldini olishda o'smirlarga faqat xulqiy talablar qo'yish emas, balki uning emotsional holatini tushunish va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish ham zarur. Oila o'smirlarning xulq-atvori shakllanadigan birlamchi ijtimoiy muhit hisoblanadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar sifati, ota-



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



onaning tarbiya uslubi, farzandga nisbatan talab va nazoratning muvozanati uning emotsional barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Doimiy nizolar, qo'pollik, haddan tashqari qattiqqo'llik, befarqlik yoki bolaning fikrini muntazam ravishda inkor etish agressiv reaksiyalar uchun salbiy psixologik sharoit yaratishi mumkin. Aksincha, ishonch, mehr, o'zaro hurmat va ochiq muloqotga asoslangan oilaviy muhit o'smirning muammolarini zo'ravonliksiz hal qilishiga yordam beradi.

Oilaviy tarbiyada izchillikning yo'qligi ham muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, bir vaziyatda qat'iy jazolash, boshqa vaziyatda esa ayni xatti-harakatni e'tiborsiz qoldirish o'smir uchun xulqiy chegaralarning noaniq bo'lib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois ota-onalarning tarbiyaviy talablarida izchillik, tushunarlilik va adolat tamoyillariga amal qilishi muhimdir. O'smirning xatosini faqat jazolash emas, balki xatti-harakatining oqibatlarini anglashiga yordam berish samaraliroq pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ta'lim muassasasidagi psixologik muhit ham agressiv xulq-atvor shakllanishida alohida o'rin tutadi. Pedagogning o'quvchi bilan muloqot qilish uslubi, baholashdagi xolisligi, nizoli vaziyatlarni hal etish madaniyati va sinfdagi o'zaro munosabatlar o'smirning ruhiy holatiga ta'sir qiladi. O'quvchini muntazam ravishda omma oldida kamsitish, boshqa o'quvchilar bilan taqqoslash, uning fikrini mensimaslik yoki faqat jazolashga asoslangan intizom usullaridan foydalanish norozilik va qarshilik reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonda o'smir bilan hamkorlikka asoslangan muloqotni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'smirning xatti-harakatini baholash bilan birga, uning sabablarini tushunishga intilishi, muammoli vaziyatni tinch muhokama qilishi va maqbul xulqiy alternativallarni ko'rsatishi lozim. Bunday yondashuv o'smirda o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Tengdoshlar muhiti o'smirning ijtimoiy tajribasini boyituvchi muhim manba bo'lishi bilan birga, salbiy xulqiy modellarni shakllantiruvchi omilga ham aylanishi mumkin. O'smir uchun guruh tomonidan tan olinishi va qo'llab-quvvatlanishi katta ahamiyatga ega. Agar tengdoshlar guruhida kuch ishlatish, qo'pollik, boshqalarga nisbatan ustunlikni namoyish etish yoki qoidalarni buzish ijobiy baholansa, o'smir guruhga moslashish maqsadida ana shunday xatti-harakatlarni takrorlashi mumkin. Aksincha, sog'lom jamoaviy muhit o'smirda hamkorlik, empatiya, o'zaro yordam va mas'uliyat kabi ijobiy sifatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bulling hodisasi ham o'smirlarning agressiv xulq-atvori bilan bog'liq muhim masalalardan biridir. Doimiy mazax qilish, kamsitish, tahdid yoki ijtimoiy jihatdan chetlashtirish o'smirda kuchli emotsional zo'riqish paydo qilishi mumkin. Ayrim hollarda jabrlanuvchi agressivlikni o'zini himoya qilish vositasi sifatida namoyon etadi. Shu bois maktab muhitida bullingning oldini olish, nizoli munosabatlarni erta aniqlash va o'quvchilar o'rtasidagi ijobiy ijtimoiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Zamonaviy raqamli muhit ham o'smirlar xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda haqorat, tahdid, kamsitish va zo'ravonlikka asoslangan kommunikatsiya shakllari kiberagressiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Kiberagressiyaning o'ziga xos jihati shundaki, salbiy xatti-harakat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'UYALAR



virtual makonda tez tarqalishi va keng auditoriyaga yetib borishi mumkin. Shu sababli o'smirlarda raqamli muloqot madaniyati, media savodxonlik va axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish ham agressiv xulq profilaktikasining tarkibiy qismi bo'lishi lozim. Agressiv xulq-atvor ayrim hollarda deviant xatti-harakatlar bilan ham o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Maktab intizomini muntazam buzish, darslardan sababsiz qolish, ijtimoiy qoidalarga bepisand munosabatda bo'lish, tengdoshlar bilan doimiy nizolashish va huquqiy me'yorlarga zid xatti-harakatlar shular jumlasidandir. Biroq agressivlik namoyon qilgan har bir o'smirni deviant xulqli shaxs sifatida baholash to'g'ri emas. Bunday baholash o'smirlarga nisbatan salbiy stereotiplarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun pedagogik-psixologik diagnostika individual va vaziyatga mos yondashuv asosida olib borilishi zarur.

Agressiv xulq-atvorning oldini olishda psixologik-pedagogik profilaktika muhim ahamiyatga ega. Profilaktik faoliyat o'smirni jazolashdan ko'ra, agressiv xatti-harakatga olib keluvchi sabablarni kamaytirishga qaratilishi kerak. Bunda o'smirlarga emotsiyalarni anglash va boshqarish, konfliktli vaziyatlarda murosaga kelish, o'z fikrini tajovuzsiz ifodalash, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qilish va muammolarni muloqot orqali hal etish ko'nikmalarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o'smirlarning sport, san'at, ijodiy mashg'ulotlar, turli to'garaklar va jamoaviy loyihalarga jalb etilishi ularning ijtimoiy faolligini konstruktiv yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Bunday faoliyatlar o'smirning o'z qobiliyatlarini namoyon etishi, tengdoshlari bilan ijobiy munosabat o'rnatishi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashiga yordam beradi. Ayniqsa, jamoaviy faoliyat orqali hamkorlik, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi ijtimoiy sifatlarni rivojlantirish agressiv xulqning oldini olish nuqtayi nazaridan samarali hisoblanadi.

O'smirlarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar

№	Omillar guruhi	Asosiy omillar	Agressiv xulq-atvoriga ta'siri	Profilaktik yo'nalish
1	Psixologik omillar	Emotsional beqarorlik, jahldorlik, impulsivlik, frustratsiya	Keskin reaksiya, o'zini nazorat qila olmaslik, tajovuzkorlik	Emotsiyalarni boshqarish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish
2	Oilaviy omillar	Oiladagi nizolar, ota-onaning befarqligi, qattiqqo'l yoki nomutanosib tarbiya	Norozilik, ichki zo'riqish, qo'pollik va tajovuzkor xatti-harakatlar	Ota-onaga va farzand o'rtasida ishonchli muloqotni shakllantirish



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



3	Pedagogik omillar	Haddan tashqari tanqid, adolatsiz baholash, o'quvchining fikrini mensimaslik	Qarshilik, nizoga moyillik, pedagogga nisbatan agressiv munosabat	Individual yondashuv, rag'batlantirish va konstruktiv muloqot
4	Tengdoshlar ta'siri	Salbiy guruhga qo'shilish, guruh bosimi, taqlid	Agressiv xulqni guruh tomonidan qabul qilingan norma sifatida o'zlashtirish	Ijobiy tengdoshlar muhitini va jamoaviy faoliyatni rivojlantirish
5	Bulling omili	Mazax qilish, kamsitish, tahdid, ijtimoiy chetlashtirish	Himoyalanişga qaratilgan agressiya, ruhiy zo'riqish	Bullingni erta aniqlash va psixologik yordam ko'rsatish
6	Ijtimoiy omillar	Ijtimoiy beqarorlik, salbiy muhit, kommunikativ muammolar	Deviant va ijtimoiy me'yorlarga zid xatti-harakatlarning kuchayishi	Ijtimoiy moslashuv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish
7	Axborot-media omillari	Zo'rvonlik aks etgan kontent, salbiy media modellar, kiberagressiya	Tajovuzkor xatti-harakatlarni kuzatish va takrorlash ehtimolining ortishi	Media savodxonlik va raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish
8	Shaxsiy omillar	O'ziga past baho, ishonchsizlik, tan olinishga ehtiyoj	O'zini himoya qilish yoki e'tibor jalb qilish uchun agressiyadan foydalanish	O'z-o'zini baholash va ijobiy "Men" konsepsiyasini rivojlantirish
9	Ta'lim muhiti	Psixologik noqulaylik, nizoli sinf muhiti, qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi	Stress, norozilik va tajovuzkor reaksiyalarning kuchayishi	Sog'lom psixologik iqlim va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish
10	Faoliyat omillari	Bo'sh vaqtning mazmunsiz tashkil etilishi, ijtimoiy faollikning pastligi	Salbiy guruhlar va xulqiy modellar ta'sirining kuchayishi	Sport, san'at, ijodiy to'garaklar va jamoat faoliyatiga jalb etish

O'smirlardagi agressivlikni kamaytirishda maktab psixologi, pedagog, ota-ona va ijtimoiy pedagogning hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Muammoni faqat ta'lim muassasasi yoki faqat oila doirasida hal qilish yetarli bo'lmisligi mumkin. O'smirning kundalik hayotidagi turli muhitlar o'zaro bog'liq bo'lgani sababli profilaktik faoliyat ham tizimli ravishda tashkil



etilishi lozim. Ota-onalar uchun psixologik-pedagogik maslahatlar, pedagoglar uchun agressiv xulqning dastlabki belgilarini aniqlash bo'yicha tavsiyalar va o'smirlar uchun trening mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish kompleks profilaktikaning muhim yo'nalishlarini tashkil etadi. Umuman olganda, o'smirlardagi agressiv xulq-atvorni shakllantiruvchi omillarni pedagogik va psixologik jihatdan kompleks tahlil qilish ushbu muammoning oldini olish uchun zarur nazariy va amaliy asos yaratadi. Agressivlikni faqat salbiy xulq sifatida baholash o'rniga, uning yuzaga kelish sharoitlarini aniqlash, o'smirning emotsional ehtiyojlarini tushunish va ijobiy xulqiy strategiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuv samaraliroq natija beradi. Shu jihatdan, sog'lom oilaviy munosabatlar, qulay maktab muhiti, ijobiy tengdoshlar aloqasi, raqamli madaniyat va psixologik qo'llab-quvvatlash o'smir shaxsining barkamol rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bandura A. *Aggression: A Social Learning Analysis*. — Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1973.
2. Bandura A. *Social Learning Theory*. — Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1977.
3. Berkowitz L. *Aggression: Its Causes, Consequences, and Control*. — New York: McGraw-Hill, 1993.
4. Dollard J., Doob L.W., Miller N.E., Mowrer O.H., Sears R.R. *Frustration and Aggression*. — New Haven: Yale University Press, 1939.
5. Erikson E.H. *Identity: Youth and Crisis*. — New York: W.W. Norton & Company, 1968.
6. Olweus D. *Bullying at School: What We Know and What We Can Do*. — Oxford: Blackwell Publishers, 1993.
7. Merton R.K. Social Structure and Anomie // *American Sociological Review*. — 1938. — Vol. 3, No. 5. — P. 672–682.
8. Hirschi T. *Causes of Delinquency*. — Berkeley: University of California Press, 1969.
9. Rutter M., Giller H., Hagell A. *Antisocial Behavior by Young People*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
10. Freud S. *Beyond the Pleasure Principle*. — London: Hogarth Press, 1920.